

O'QUVCHI YOSHLARNI KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Muydinova Sayyoraxon Toxirjonovna

Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'lim muassasalarida yoshlarni kitobxonlik madaniyatini shakllantirish xamda kitobxonlik targ'ibotini tashkil etish masalasi bo'yicha atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik tadbirlari, yoshlar, kutubxona, intellektual rivojlanish.

Abstract: In this article, the author provides a detailed discussion on the issue of forming a reading culture among young people in educational institutions and organizing reading promotion.

Keywords: reading, reading culture, reading events, youth, library, intellectual development.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarimizning ma'naviy kamoloti, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, keng dunyoqarash va intellektual saviyaga ega bo'lishi dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimi–kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va o'quvchilarning savodxonligini rivojlantirish muammosini hal etib, global ta'lim tajribasiga kirib borishga faol intilmoqda. Bugungi kunda maktab ta'limida asosiy e'tibor kitobxonlik, mutolaa ko'nikmalarini asos sifatida o'zlashtirishga qaratilgan. Kitobxonlik, mutolaa qilish ko'nikmalari yoshlarning komil shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Yurtimizda kutubxonalarning faoliyatini rivojlantirish, kitob mutolaasini keng targ'ib qilish orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviyatini boyitishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy-intelektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi PQ-32-71-son qarori asosida, yurtimizning barcha ta'lim dargohlarida hamda ta'lim sohasiga tegishli bo'lgan dargohlarda, kitobxonlikni rivojlantirish borasida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirib borilmoqda. Biz buning misolini dastlab, yurtimiz yoshlarini kitobxonlikka jalb qilish ularning bo'sh

vaqtlarini umumli o‘tkazish maqsadida, kitobxonlik bo‘yicha tanlovlar o‘tkazishni va unga jalb qilish ishlarini amalga oshirilayotgani buning yaqqol dalilidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuksak ma‘naviyatli yoshlarning kitobxonlik odatlari ularning aqliy, hissiy va ma‘naviy kamolotida muhim omil bo‘lmoqda.

Biroq, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda raqamli axborot vositalarining jozibasi va chalg‘itish omillari tufayli yoshlar o‘rtasida kitob o‘qish odatlari asta-sekin kamayib bormoqda. Shunday ekan, pedagoglar, ota-onalar va jamiyat sifatida yuksak ma‘naviyatli yoshlarni kitobxonlikka undash bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak.

Yuksak ma‘naviyatli yoshlarni kamol topishda ta‘lim muassasalarida yoshlarni kitobxonlik bilan bog‘liq targ‘ibotni tashkil etish o‘ziga xos qo‘llab-quvvatlaydigan usullarni talab qiladi. Ularning qiziqishlariga, talablari va qobiliyatlariga e‘tibor qilish va ularga mos keladigan usullarni tanlash, ularni o‘qishga rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kitobxonlik tadbirlari masalan, kitob o‘qish klubi yoki muharrirlik jamiyati tashkil

etish, yoshlarga kitoblar haqida suhbatlar, mashg‘ulotlar, kitob taklif etish va taqdim

etish bilan bog‘liq bolalarni qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Yuksak ma‘naviyatli yoshlar uchun kitobxonlikka qiziqishni oshirish uchun, ularga yo‘l xaritasi yoki kitobga oid qiziqarli faktlar yordamida qanday ko‘p narsani o‘rganishlari mumkinligini ko‘rsatish kerak.

Yuksak ma‘naviyatli yoshlar uchun kitoblar ustida tafakkur va muhokama o‘rganishning muhim bo‘lgan bir qismi o‘qish jarayonini doimo yangilashdir.

Bu ularga o‘qishdan so‘ng kitob haqida muloqot o‘tkazish, kitobni tahlil qilish, ma‘lumotlarni kiritish va ularning o‘z fikrlarini bayon etishga imkon beradi.



. O‘qish bilan bog‘liq o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish: Yuksak ma‘naviyatli yoshlarni o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish juda muhimdir. Ular o‘qishga qiziqish olish uchun o‘zlariga qulay bo‘lgan o‘qish joylarini, zamonaviy va qiziqarli kitoblarni, o‘qish vaqtlarini tanlashda erkinlikka ega bo‘lishlari kerak.

Yuksak ma‘naviyatli yoshlarni kamol topishida kitobxonlik targ‘ibotini tashkil etishning bir qator muhim usullari mavjud. Birinchi navbatda, kitoblar o‘qishga qiziqishlarini yuksaltirish uchun doimiy va boyitma o‘qish imkoniyatini yaratish kerak. Ular uchun yangi kitoblar haqida ma‘lumot berish, ularning qiziqishlarini bilish va ularni o‘qish uchun navbatma-navbat chora-tadbirlar o‘tkazish, kitobxonlik klublarini tashkil etish va yozuvchilar bilan uchrashish ularga kitobxonlik bilan bog‘liq yaxshi tajriba yaratadi. Biroq, har bir yosh o‘ziga xosdir, shuning uchun kitobxonlik targ‘ibotini tashkil etishda boshqa usullarni ham qo‘llash kerak. Buning uchun yoshlar bilan doimiy muloqotda bo‘lish va ularning talablarini va qiziqishlarini tushunish muhimdir. Ularga mos keladigan kitoblar va o‘qish imkoniyatlari taqdim etish uchun ularga boshqalar bilan ham fikr almashish kerak. Yuksak ma‘naviyatli yoshlarni kamol topishida kitobxonlik targ‘iboti tashkil etishni o‘rgangan holda, ular o‘qishga qiziqishlarini oshirishda va o‘z fikrini ifodalashga intilishlari, ma‘naviyat va intellektual rivojlanishlarini yanada oshirishlari mumkin. Kitobxonlik, ularning hayotidagi ilm-fan va fikriy boshqarishlarini o‘stiradi va ularga o‘zlarini yuqori saviyada rivojlantirish imkonini beradi.



XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuksak ma‘naviyatli yoshlarning kitobxonlik odatini rag‘batlantirish ularning intellektual va hissiy rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘rnak bo‘lish, xilma-xillikni taklif qilish, mos o‘qish muhitini yaratish, mukofotlash tizimini joriy etish va raqamli o‘qish imkoniyatlarini taklif qilish kabi strategiyalar ta‘lim muassasalarida yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Ushbu strategiyalardan foydalanib, yoshlarni kitob o‘qish odatiga

yoʻnaltirish va ularni butun hayoti davomida oʻrganuvchi va qiziquvchan shaxsga aylantirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida. Xalq soʻzi, 2017 yil 14 sentiyabr. – № 184.
2. Umarov A. Kitob va kitobxon: anʼanalar va yangiliklar // Sogʻlom avlod uchun. - T.: 2003 y.
3. Umarov A. Kutubxona faoliyati va mutolaa madaniyati // Jamiyat va boshqaruv. - T.: 2004 y.
4. Qayumxoʻjaeva Y. Oʻquvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007 y.
5. Yoʻldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. T.: Oʻzbekiston, 2003 y.